

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADVOKATLAR PALATASINING  
TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
MASALALARI**

**Aliyeva Farangiz Rashidjon qizi,**

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura talabasi

E-mail: [farangizaliyeva1402@gmail.com](mailto:farangizaliyeva1402@gmail.com)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida advokatura institutining ijtimoiy-huquqiy tabiatini transformatsiya qilish va o'zini o'zi boshqarish organining huquqiy maqomini xalqaro standartlar asosida unifikatsiya qilish masalalari tahlil etiladi. Advokatlar palatasi boshqaruvida proportsionallik tamoyilini joriy etish, rahbarlik lavozimlariga nomzodlar uchun strategik "saylovoldi dasturlari" tizimini yaratish hamda malaka va intizom komissiyalarining ijroiya organlaridan institutsional mustaqilligini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

***Tayanch so'zlar:** Advokatura, Advokatlar palatasi, o'zini o'zi boshqarish, proportsionallik tamoyili, intizom komissiyasi, institutsional mustaqillik, korporativ boshqaruv.*

**IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL  
FOUNDATIONS OF THE CHAMBER OF ADVOCATES OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

***Abstract:** This article analyzes the issues of transforming the socio-legal nature of the advocacy institution in the Republic of Uzbekistan and unifying the legal status of its self-governing body in accordance with international standards. The study develops scientifically grounded proposals aimed at introducing the*

*principle of proportionality in the governance of the Chamber of Advocates, establishing a system of strategic “pre-election programs” for candidates to leadership positions, and ensuring the institutional independence of qualification and disciplinary commissions from executive bodies.*

**Keywords:** *Advocacy, Chamber of Advocates, self-governance, principle of proportionality, disciplinary commission, institutional independence, corporate governance.*

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-  
ПРАВОВЫХ ОСНОВ ПАЛАТЫ АДВОКАТОВ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**Аннотация:** *В данной статье анализируются вопросы трансформации социально-правовой природы института адвокатуры в Республике Узбекистан и унификации правового статуса органа самоуправления на основе международных стандартов. Разработаны научно обоснованные предложения по внедрению принципа пропорциональности в управлении Палатой адвокатов, формированию системы стратегических «предвыборных программ» для кандидатов на руководящие должности, а также обеспечению институциональной независимости квалификационных и дисциплинарных комиссий от исполнительных органов.*

**Ключевые слова:** *адвокатура, Палата адвокатов, самоуправление, принцип пропорциональности, дисциплинарная комиссия, институциональная независимость, корпоративное управление.*

Demokratik huquqiy davlatda inson huquqlarini himoya qilish tizimining samaradorligi bevosita advokatura institutining mustaqilligiga bog'liq. BMTning "Yuristlar roli bo'yicha asosiy prinsiplari" (1990) hujjatida ta'kidlanganidek, advokatlarning kasbiy birlashmalari o'z vazifalarini hech qanday tashqi aralashuvsiz amalga oshirishlari shart [6]. O'zbekiston Respublikasida advokatura sohasidagi tub islohotlar 2008-yildagi "Advokatura institutini yanada islox qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3993-sonli [3] hamda 2018-yildagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-sonli [4] Prezident farmonlari bilan boshlanib, tizimni Assotsiatsiyadan yagona markazlashgan Palata modeliga o'tkazdi.

Biroq, bugungi kunda Advokatlar palatasining tashkiliy-huquqiy maqomida "professional birlashma" va "majburiy a'zolikka asoslangan institutsional tuzilma" o'rtasidagi huquqiy kolliziya hamda uning davlat organlari tizimidan ajratilganligi darajasi ilmiy tahlilni talab etadi [5]. Mazkur maqolaning maqsadi advokatlar o'zini o'zi boshqarish organining huquqiy maqomini zamonaviy xalqaro standartlar va qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur masala yuzasidan advokat K. Qalandarov advokatlar palatasi hamda advokatlik tuzilmalari davlat tashkiloti hisoblanmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, buning asosiy sababi shundaki, advokatlik tuzilmalarining birortasi ham respublika yoki mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmaydi. Shu bilan birga, N. Andrianov davlat organlari tizimiga kirmaydigan barcha institutlarni

avtomatik tarzda fuqarolik jamiyati institutlariga kiritish to'g'ri emasligini qayd etadi.

Advokatlar palatasining ijtimoiy-huquqiy tabiati uning davlat organlari tizimiga kirmaydigan alohida ijtimoiy-huquqiy institut ekanligi bilan tavsiflanadi [5]. Ushbu maqomni real hayotga tatbiq etish uchun boshqaruv tizimida proportsionallik va almashinuvchanlik prinsiplarini kuchaytirish ilmiy asoslangan zaruriyatdir.

Birinchiidan, korporativ boshqaruvda turg'unlikning oldini olish va rahbarlik organlarining demokratik yangilanishini ta'minlash maqsadida, ayni bir shaxsning ketma-ket ikki muddatdan ortiq Advokatlar palatasining raisi bo'lishi mumkin emasligini qonun darajasida mustahkamlash lozim [5]. Bu norma advokatlar hamjamiyatining ichki mustaqilligini va qarorlar qabul qilishda muqobillikni kafolatlaydi.

Ikkinchiidan, hududiy tuzilmalar va markaziy boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarda qarorlar qabul qilishda proportsionallik tamoyili joriy etilishi shart. Bugungi kunda Toshkent shahri kabi advokatlar soni ko'p bo'lgan hududlar bilan advokatlar soni kamroq hududlarning (masalan, Sirdaryo) Palata Konferensiyasidagi vakillik darajasi o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish talab etiladi [5]. Delegatlarni saylashda hududlardagi advokatlarning umumiy soniga nisbatan kotirovka qilingan vakillik stavkalarini belgilash Palata qarorlarining legitimligini oshiradi.

Palata rahbarligiga nomzodlarni saylash tizimi nafaqat tajribaga, balki aniq strategik istiqbolga asoslanishi lozim. Germaniya, Fransiya va Latviya kabi rivojlangan huquqiy tizimlarda advokatlar o'zini o'zi boshqarish organlari

rahbarligiga nomzodlar o'zining kelgusi 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan faoliyat strategiyasini taqdim etishi odatiy amaliyot hisoblanadi [5].

Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikda nomzodlarning advokaturani rivojlantirish bo'yicha uzoq va yaqin istiqbolga mo'ljallangan "saylovoldi dasturlari"ni taqdim etishi majburiyatini belgilash taklif etiladi. Mazkur dasturlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- 1. Advokatura institutining institutsional mustaqilligini oshirish strategiyasi;*
- 2. Advokatlarning ijtimoiy va kasbiy himoyasini kuchaytirish mexanizmlari;*
- 3. Sohani raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish rejalari.*

Rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishda muqobillik va ochiqlik prinsiplarini qo'llash, hududiy boshqarma rahbarlarini tayinlashda markaziy boshqaruvning vertikal ta'sirini kamaytirish va hududiy advokatlarning saylov huquqini kengaytirish tizimning demokratik tabiatini mustahkamlaydi [5].

Advokatlarning kasbiy faoliyatiga ruxsat berish va ularning intizomiy javobgarligi masalasini hal qiluvchi komissiyalarning mustaqilligi tizimning muhim qismi hisoblanadi. Amaldagi tizimda ushbu komissiyalar ustidan adliya organlarining muayyan darajadagi nazorati saqlanib qolmoqda, bu esa ijro etuvchi hokimiyatning advokaturaga bilvosita ta'siri sifatida baholanishi mumkin [5].

Oliy malaka komissiyasi hamda uning hududiy bo'linmalarining tarkibini shakllantirish advokatura institutining barqaror faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu komissiyalar advokatlik kasbiga kirish jarayonini tartibga solib,

talabgorlarni advokatlar safiga qabul qilish bilan bog'liq asosiy qarorlarni qabul qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, advokat maqomiga ega bo'lish, intizomiy choralar qo'llash va boshqa muhim masalalar yagona organ malaka komissiyalariga yuklatilgan. 2017–2019-yillarda hududiy malaka komissiyalari tomonidan 2206 ta masala ko'rib chiqilgan bo'lib, Shulardan 803 tasi malaka imtihonini topshirishga oid, 930 tasi intizomiy ishlarga taalluqli masalalar bo'lgan. Ushbu davrda hududiy malaka komissiyalarining 68 ta qarori Oliy malaka komissiyasi tomonidan, 2 tasi esa sud tomonidan bekor qilingan. Shu bilan birga, Oliy malaka komissiyasi tomonidan 2018–2019 yillarda jami 289 ta ish ko'rib chiqilib, ulardan 88 tasi imtihon natijalaridan norozi bo'lib yozilgan shikoyatlar bo'lsa, 201 tasini intizomiy ishlar tashkil etgan.

Shu bilan birga, amaliyotda malaka va intizom komissiyalari vakolatlarining aniq chegaralanmaganligi ularning funksional aralashuviga olib kelishi mumkin. Mazkur holat institutsional barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, malaka komissiyalari faoliyatini advokatlik kasbiga qabul qilish, malaka imtihonlarini o'tkazish va kasbiy darajani baholash bilan cheklash, intizom komissiyalariga esa advokatlarning kasbiy faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, intizomiy ishlarni ko'rib chiqish va tegishli choralarni qo'llash vakolatlarini birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur vakolatlarning o'zaro aralashuviga yo'l qo'yilmasligi normativ jihatdan aniq belgilanishi advokatura tizimida ochiqlik, xolislik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy malaka va Oliy intizom komissiyalarini Advokatlar palatasining tashkiliy tuzilmasiga to'laqonli kiritish, biroq ularning qaror qabul qilish jarayonini Palata raisi va boshqaruvining ma'muriy ta'siridan to'liq cheklash lozim [7]. Institutsional mustaqillikni ta'minlash uchun komissiya a'ziligiga nafaqat advokatlar, balki sud hokimiyati, adliya organlari va akademik hamjamiyat vakillarini kiritish, ammo ularning sonini advokatlar sonidan oshirmaslik talab etiladi. Bu model shaffoflikni ta'minlaydi va "korporativ yopiqlik" xavfini kamaytiradi [5]. Intizomiy ish yuritishda advokatning o'zini himoya qilish yoki vakil orqali ishtirok etish huquqi protsessual jihatdan qat'iy kafolatlanishi shart.

Tadqiqot doirasida 1600 nafar advokat o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, repondentlarning 73,3 foizi (1136 nafari) amaldagi qonunchilik tizimni "qisman ta'minlaydi" deb hisoblaydi [5]. Bu ko'rsatkich sohada fundamental huquqiy islohotlar zarurligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, Advokatlar palatasi tizimida Oliy malaka komissiyasi advokatura institutining sifat nazoratini amalga oshiruvchi muhim organ hisoblanadi. Biroq amaldagi tartibda uning a'zolarining bir vaqtning o'zida Palata Boshqaruvi tarkibida bo'lishiga nisbatan normativ cheklovlar mavjud emas.

Mazkur holat boshqaruv va nazorat funksiyalarining bir shaxsda jamlanishiga olib kelib, manfaatlar to'qnashuvi xavfini yuzaga keltiradi hamda nazoratning xolisligi va shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy boshqaruv nazariyasiga ko'ra, vakolatlar bo'linishi tamoyili asosiy ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro standartlar ham advokatura tizimida mustaqil nazorat organlari faoliyat yuritishini talab etadi.

Shu munosabat bilan Advokatlar palatasi Ustavining 47-bandini quyidagi mazmundagi qo‘shimcha bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq:

“Oliy malaka komissiyasi a‘zolari Boshqaruv a‘zolari tarkibiga bir vaqtning o‘zida kiritilmaydi.”

Ushbu islohotlarning amalga oshirilishi advokatura institutini davlat organlarining vasiyigidan chiqarib, uni fuqarolik jamiyatining chinakam mustaqil va nufuzli tayanchiga aylantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni, 1996-yil 27-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada islox qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–3993-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5441-sonli Farmoni.
5. Davlyatov V.X. Advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va o‘zini o‘zi boshqarish organining huquqiy maqomi masalalari. Yurid. fan. fal. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2020.
6. UN Basic Principles on the Role of Lawyers. Adopted by the Eighth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, Cuba, 1990.



7. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining Ustavi (yangi tahriri). – Toshkent, 2018-yil 17-noyabr.
8. Qalandarov K. Advokaturaning yechilmagan muammolari. // *Advokat*, №5–6/2018. B. 14.
9. Андрианов Н.В. Гражданское общество как среда институционализации адвокатуры. Изд. Стереотип. - М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2015. С. 91